XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-fevral VII-5-19-1-19-K/25 Bo‘ston tumani

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi deputatlari tomonidan 2025-yilning birinchi choragi davomida o‘z faoliyati yuzasidan saylovchilari oldida axborot berilishini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mahalliy vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi “Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 22-sonli qaroriga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6- moddasi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasiga muvofuq, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining o‘z saylovchilari oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mahalliy vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi “Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 22-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi deputatlari tomonidan 2025-yilning 1-choragi davomida o‘z faoliyati yuzasidan saylovchilari oldida axborot berishining reja-jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari E.G‘aniyev, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (E.Mo‘minov)ga :

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan uchrashuv hamda o‘z faoliyati yuzasidan saylovchilari oldida axborot berishlari uchun bino ajratilishi, uchrashuv joyi va vaqti haqida fuqarolarga xabar berilishi va deputatlarning taklifiga ko‘ra uchrashuvlarda ijro organlari mas’ullari ishtirok etishini ta’minlasin.

4. Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi deputatlari:

- o‘z saylovchilari oldida axborot berishni xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 13-avgustdagi “Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan uchrashuv davomida aniqlangan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi VI-66-84-1-19-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xalq deputatlari

tuman Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari oldida axborot berish tartibi”ga muvofiq tashkil etilishini;

- axborot berish yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalarni uchrashuvlar o‘tkazilgandan so‘ng 5 kunlik muddatda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim qilinishini ta’minlasinlar.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 13-avgustdagi “Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan uchrashuv davomida aniqlangan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi VI-66-84-1-19-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘.Ro‘ziyev) hamda kotibiyat mudiri J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

NOSIROVA
SANABARXON
ABDINABIYEVNA

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-5-19-1-19-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan 2025-yilning 1-choragi davomida o‘z faoliyati yuzasidan saylovchilar oldida axborot berishining REJA-JADVALI

T/r	Deputatning familiya ismi va otasining ismi	Saylangan okrugi	Axborot berish yuzasidan uchrashuv o‘tkazish sanasi	Axborot berish yuzasidan uchrashuv o‘tkazish joyi	Uchrashuv bayonnomasini kotibiyatga topshirish muddati
1	Nosirova Sanabarxon Abdinabiyevna	1-Do‘stlik	04.03.2025-yil	Politexnika texnikumi	14.03.2025-yil
2	Abdullayev Bahodirjon Shermatovich	2-Sariq jo‘ga	05.03.2025-yil	23-umumta’lim maktabi va 17-umumta’lim maktabi faollar zali	15.03.2025-yil
3	Soliyeva Buxalima Aripovna	3-Gulshan	06.03.2025-yil	21-umumta’lim maktabi va 9-umumta’lim maktabi faollar zali	17.03.2025-yil
4	Xojakbarov Ikromali Imomaliyevich	4-Obod	7.03.2025-yil	11-umumta’lim maktabi faollar zali	17.03.2025-yil
5	Raxmonov Jo‘rabek Maxmudjonovich	5-Bo‘ston	10.03.2025-yil	26-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
6	Do‘smatova Moxim Matyaqubovna	6-Guzar	11.03.2025-yil	14-umumta’lim maktabi va Bolalar musiqa maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
7	Sodikova Ra’no Tulanovna	7-Pillakor	10.03.2025-yil	61-IDUM faollar zali	24.03.2025-yil
8	Tuychiyeva Matlubaxon Kamoldinovna	8-Maorif	11.03.2025-yil	1-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
9	Ro‘ziyev G‘ulomjon G‘ofurovich	9- Yangi qishloq	12.03.2025-yil	2-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
10	Ko‘ziyeva Nigora Ibroximovna	10-Yangi obod	12.03.2025-yil	25-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
11	Soliyev Shuxratjon Usmonjonovich	11- Mustaqillik 15 yilligi	13.03.2025-yil	8-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil

12	Qodirov Muhammadbobur Bahodirjon o‘g‘li	12-Yakka tol	14.03.2025-yil	18-umumta’lim maktabi va 19-umumta’lim maktabi faollar zali	24.03.2025-yil
13	Mamarizayev Shavkatbek Mamadjonovich	13-Ko‘xinur	15.03.2025-yil	2-umumta’lim maktabi faollar zali	25.03.2025-yil
14	Abduraxmonova Kommunaxon Pulatovna	14-G‘olib	17.03.2025-yil	6-umumta’lim maktabi faollar zali	27.03.2025-yil
15	Boltaboyev Baxtiyor Ortiqovich	15-Nurafshon	18.03.2025-yil	13-umumta’lim maktabi faollar zali	28.03.2025-yil
16	Umarova Zulxumor Obobakirovna	16- Dexqonobod	24.03.2025-yil	10-umumta’lim maktabi faollar zali	4.04.2025-yil
17	Ashurov Shuxrat Obidjonovich	17- Xalqobod	25.03.2025-yil	7-umumta’lim maktabi faollar zali	5.04.2025-yil
18	Nishanov Murodillo Raximberdiyevich	18-Guliston	26.03.2025-yil	4-umumta’lim maktabi faollar zali	7.04.2025-yil
19	Jurayev Azamatjon Tuychiyevich	19-Mexnatobod	27.03.2025-yil	20-umumta’lim maktabi faollar zali	7.04.2025-yil
20	Axmedova Karima Vaxobovna	20-Xovos	28.03.2025-yil	12-umumta’lim maktabi faollar zali	8.04.2025-yil